

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Anor yetishtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirish yo'llari

Irgashev Abbos Jumanazarovich

Значение выращивания граната и пути повышения его продуктивности

Иргашев Аббос Джуманазарович

The importance of growing pomegranate and ways to increase its productivity

Irgashev Abbos Djumanazarovich

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotasiya:** ushbu maqolada anor yetishtirishning xususiyatlari va ahamiyati hamda anor yetishtirishni yangi ekologik toza, resurs tejamkor usuli, dexqon va fermer xo'jaliklariga dorivor anorni yetishtirish agrotekhnologiyasi, dorivor anor navini yangi texnologiya asosida yetishtirish, dorivor anor navini yetishtirish O'zbekistonda yilning xamma fasllarida, uy sharoitida, xonadonlarda – balkonlarda tuvaklarda, maxsus yashiklarda va issiqxonalarda, xamda erta bahordan ochiq maydonlarda yetishtirish mumkinligi. Anorning mevasi sharbati, qayta ishlanishi va insonlar uchun anor o'simlikning ildizi, tanasi, tanasidagi po'stlog'i, tanasidagi elimi, shoxi, novdasi, bargi, guli, g'o'rasi, mevasi, mevasini po'stidan hamda urug'idan foydalanishlarining xususiyatlari va ahamiyati yoritilgan.
- **Kalit so'zlar:** anor, dorivor o'simlik, anor yetishtirish, tibbiyotda foydali tomonlari, dehqon va fermer xo'jaligi.
- **Аннотация:** в данной статье рассматриваются особенности и важность выращивания граната, а также новый экологически чистый, ресурсосберегающий метод выращивания граната, выращивание лекарственного граната на плантациях и фермах Агротехнология, выращивание лекарственного сорта граната на основе новой технологии, выращивание лекарственного сорта граната в Узбекистане можно выращивать на открытых площадках с раннего бохора в любое время года, в домашних условиях, на грядках – на балконах на полотнах, в специальных щелях и теплицах, в ветчине. Освещены особенности и значение переработки фруктового сока граната, переработки и использования корня растения гранат, мякоти, коры на мякоти, клея на мякоти, ветки, ответвления, листа, цветка, боярышника, плодов, очищенных от кожуры и семян.
- **Ключевые слова:** гранат, лекарственное растение, выращивание граната, польза в медицине, фермер и фермерское хозяйство.
- **Abstract:** features and importance of pomegranate cultivation in this article, as well as a new environmentally friendly, resource-efficient method of pomegranate cultivation, Agrotechnology of growing medicinal pomegranate on dexqan and Farms, cultivation of the medicinal pomegranate Variety on the basis of new technology, cultivation of the medicinal pomegranate variety in Uzbekistan in the entire seasons of the year, the fact that it is possible to grow at home, on honadons – on balconies in canvases, in special crevices and greenhouses, in open areas from early bokhor in ham. The peculiarities and significance of the processing of pomegranate fruit juice, processing and the use of pomegranate plant root, body, bark on the body, glue on the body, branch, branch, leaf, flower, hawthorn, fruit, fruit from the peel and seeds are illuminated.
- **Keywords:** pomegranate, medicinal plant, pomegranate cultivation, benefits in medicine, farmer and farm.

KIRISH

Anor yetishtirish qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligini oshirish ahamiyat kasb etadi. Bu soha mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish, aholining bandligini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash imkonini beradi. Anor ishlab chiqarish va qauta ishlash uchun qulau tabiiu iqlim sharoitlari bo'lgan O'zbekistonda kuchli potensial resurs bazasiga ega. O'zbekiston mintaqalarining tuproq, iqlim sharoitlari anor ishlab chiqarishni sanoat darajasida tashkil etishga imkon beradi. O'zbekiston sharoitida anor uetishtirishning iqtisodiu samaradorigi ko'rsatkichlari esa nisbatan uangi uo'nalish bo'lib, mevachilik sohasidagi bir qancha tadqiqotlar tarkibida qisman o'rganilgan xolos. Anor plantatsiualari qishloq joularda sezilarli darajada bandlikni ta'minlash va daromad olish imkonini beradi.

Markaziu Osiuo va unga tutash mintaqalarda joulashgan ba'zi mamlakatlarda anor va boshqa mevalarni uig'ish, qauta ishlash va sotish ko'pincha iqtisodiu faoliuat bilan bo'lgan bo'lsada, anor plantasiualarining kengauishi plantatsiualarni boshqarish, anor qauta ishlash va savdosida rasmiu bandlikning o'rnatilishiga olib keladi. Shuningdek, anor daraxtlari ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, tuproqni eroziyadan himoya qiladi, havo sifatini yaxshilaydi va mikroiqlimni tartibga soladi.

Tez buzilmaudigan mahsulotlar orasida anor ko'chirish va tashish uchun qulau bo'lgan qattiq qobig'i bilan mashhur oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Anor doshlar meva berishi mumkin bo'lgan joular ancha chegaralangan – Yer sharidagi quruqlikning atigi 7% qismi bunga mos keladi. O'zbekiston katta hududi anor yetishtirishga mos keluvchi kam, sonli davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz anor yetishtirishda oxirgi yillarda yetakchilar qatoriga kira oldi[1]. Xususan anor yetishtirishda yuqori ko'rsatkich bilan dunyoda 20-o'ringa ko'tarilganligi ishlab chiqarish hajmi ancha oshganligini anglatsada, yurtimizning tabiiy imkoniyatlaridan oqilona foydalana olinmayotganini ko'rsatadi[2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi PQ-4575-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida sohani rivojlantirish istiqbollari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Farg'ona viloyatida anor yetishtirishni ko'paytirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 4 oktabrdagi 791-son qarorida Farg'ona viloyatida anor yetishtiruvchi xo'jaliklarni tashkil etish va ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi xususiy sektor vakillariga ko'maklashish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borish, innovatsion

resurs tejamkor texnologiyalar asosida anor ko'chatlari va mahsulotini yetishtirish, uni qayta ishlashni kompleks rivojlantirish, sohaning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish hamda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda uzoq yillardan buyon anorzorlar barpo qilinib, istiqbolli navlar ekib kelinmoqda. Bular Farg'ona vodiysida, Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida joylashgan. Anorzorlar Farg'ona vodiysining Quva, Namangan va Andijon tumanlarida katta maydonlarda bog'lari barpo qilingan. O'zbekistonning boshqa viloyatlaridagi anorzorlar asosan yangi barpo etilgan bo'lib, ularga standart navlar ekilgan.

O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan umumiy anor hajmidagi ulushi bo'yicha Surxondaryo viloyati salmoqli o'ringa ega hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Anor yetishtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirish muammolari milliy va xorijiy olimlar hamda milliy mutaxassis-tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda.

Xorijiy olimlar Dankov V. [3], Ribakov A. A., Ostrouxova S. A. [4], Samedov A. [5] kabilar anor yetishtirishning ahamiyatini o'rganishgan, ammo anor yetishtirishning samaradorligini oshirishning o'ziga xos tomonlari ushbu olimlar ishlarida chuqur o'rganilmagan.

Milliy olimlarimizdan Baymetov K. I., Shreder YE. A., Axmedov SH. M., Qayimov A. Q. [6], Mirzayev M. M., Sobirov M. Q. [7], Ostanaqulov T. E., Islamov S. YA, Xonqulov X. X., Sanayev S. T., Xolmirzayev D. K. [8], Rajametov SH., Normuratov I., Adilov X., Namozov I. [9], Xasanov B. A., Ochilov R. O., Xolmurodov E. A., Gulmurodov R. A. [10], Ne'matov I. [11] va boshqa olimlarning tadqiqotlari anor yetishtirishning ahamiyatining nazariy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda anor yetishtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Shu sababli zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida anor yetishtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirishning metodikasini takomillashtirish orqali uning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida anor yetishtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirish yo'llari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraktsiya usullaridan keng

foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oxirgi yillarda anor yalpi hosili sezilarli o'sib bormoqda. Bunda uning sun'iy ishlab, chiqarilishi yoki narxlarning tushishi kabi omillar xalaqit bermaydi. Jahon bo'ylab anor mevalarini o'z ichiga oluvchi sog'lom va foydali ovqatlanishga e'tibor qiluvchi odamlar ulushi ortib borayotgani sababli bu mahsulotga talab oshmoqda.

Anor – Granat – *Punica granatum* Z. – anordoshlar (anorgullilar oilasi)ga mansub ko'p yillik o'simliklar (butalar turkumi (urug'i). Anor eng qadimiy o'simlik bo'lib, juda qadim zamondan ekilib kelinadi. Dunyoning hamma davlatlarida o'stiriladi. Vatani O'rta va markaziy Osiyo, eramizdan avvalgi 8 – 12 asrlarda Sharqiy Turistondan buyuk ipak yo'llari bo'ylab dorivor oddiy yovvoyi anor xitoy va xindi – xitoy o'lkalariga, eramizning 1 – 4 asrlarda gretsiya orqali Yevropaga tarqalgan. Lotin tilida "pinicus" atamasini so'zidan fanga kiritgan bo'lib, "Urug'li meva", "Urug'li olma daraxti" ma'nosini beradi. "Anor" nomi qadimiy forsiy tilda atalib, "Urug'li jannat mevasi" degan ma'noni bildiradi. Har qaysi halqlar anorga o'zlari nom qo'yib olishgan. Masalan, arablar "rummon", forslar "anor", turklar "nor" va yevropaliklar "urug'li olma" deb atashadi.

Anor o'simligini 20 dan ortiq turi mavjud bo'lib, shundan O'zbekistonda 5 turi: dorivor achchiqdona anor, qayin anor, qizil anor, qozoqi anor va shirindona anori navlari ko'proq ekiladi. 60 – 80 yil yashaydi, 100 yillik va undan katta yoshdagi anor daraxtlari ham xayotda uchrab turibdi. Anor daraxti tez o'sadi, bo'yi 5 metrgacha, shox – shabbasi qalin, kulirang yoki jigarrang – sariq, silliq yosh navdalari yashil – kulirang, kalta tikanlari mavjud. Barglari qarama-qarshi joylashgan, qalin, yaltiroq, ellipissimon yoki uzun nashtarsimon, kalta bandli. Gullari yakka – yakka, ba'zan to'p gul holida bo'ladi, kalta gulbandi bor. Mevalari dumaloq shaklda bo'lib, burushtiradigan, taxir mazali, qalin po'sti bilan qoplangan, mevalarini uchida gul kosasining qizg'ish yoki sarg'ish rangli qoldig'i bo'ladi, mevasining ichi parda to'siqlar bilan 6 tadan 12 tagacha uyalarga bo'lingan, uyalarda qirmizi – qizil sershira et bilan o'ralgan nordon – shirin mazali bir talay, 40 tagacha urug'lari bo'ladi. Quyidagi navlari yurtimizda ko'proq ekiladi: – Achchiqdona anor – jaydari nav bo'lib, mevasi 400 – 600 gramm, mazasi nordon, sharbati qizil, tarkibida 15 – 16 foiz qand bor, po'sti qalin, 5 oygacha yaxshi saqlanadi, tupidan 35 – 40 kilogramgacha hosil beradi;

– Qayin anor – jaydari nav bo'lib, mevasi yirik 700 – 800 gramm, nordon-xushho'r, sharbati qizg'ish, tarkibida 19 – 20 foiz qand bor, po'stining qalinligi o'rtacha, mart oyigacha yaxshi saqlanadi, tupidan 35 – 40 kilogramm hosil beradi;

– Qizil anor – jaydari nav bo'lib, mevasi 300 – 400 gramm, nordon, sharbati qizil, tarkibida 13-15 foiz qand bor, po'sti yupqa, uzoq saqlanmaydi, tupidan 50 – 60 kilogram hosil beradi;

– Qozoqi anor – xalq seleksiyasi yo'li bilan yaratilgan bo'lib, mevasi 250 – 300 gramgacha, mazasi nordon – shirin, po'sti qalin, pishiq, sharbati qizil, tarkibida 19 – 20 foiz qand bor, 6 oygacha saqlanadi, 50 – 60 kilogramdan hosil beradi;

– Shirindona anor – jaydari nav bo'lib, mevasi 300 – 350 gram, ayrimlari 600 gramgacha boradi, mazasi shirin, sharbati pushti, tarkibida 20 – 21 foiz qandi bor, po'sti o'rtacha, 3 oygacha saqlanadi, tupidan 30 – 35 kilogramgacha hosil beradi.

Anorlar urug'idan, qalamchasidan, payvand va parhish qilib ko'paytiriladi. Qurg'oqchilikka chidamli, yer osti suvlari yaqinida va sho'r tuproqlarda ham o'saveradi, tuproq tanlamaydi. Olimlar tomonidan mingdan ortiq madaniy navlarini yaratgan bo'lib, ko'pchiligi dorivordir. Mevali va manzarali daraxt sifatida ham ekiladi. May – avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust – oktabr oylarida pishadi. Mevasi to'liq pishib yetilganda pishgan anorlarni terib olinadi va maxsus joylarda saqlanadi.

Shaxrihon tumanidagi "Naynavo oqshomi" ilmiy eksperimental urug'chilik ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida bir necha o'n yillardan beri antiqa ANOR Dorivor anor – "Jannat meva – 6" navida tajriba – sinov ishlarini ilmiy jixatidan o'rganish ishlari amalga oshirildi, tuproq tallamaydi, sho'r va nam tuproqlarda ham hosil beraveradi. Sovuqqa, issiqqa va suvsizlikka chidamli.

Hammamizga ma'lumki kuz kirib kelishi bilan o'lkamizda anor pishib yetiladi. Demak, bu mevani iste'mol qilish ayni vaqti. Shu sababli biz, siz azizlarimizga bugun anor mevasining foydali xususiyatlari haqida va nega ularni iste'mol qilish foydali ekanligi borasida to'xtalishni lozim topdik.

Anor mevasi barcha mevalarning qiroli hisoblanadi. Uning to'q qizil rangi ko'zni qamashtiradi. Anor nafaqat mazali, balki vitaminlarga boy, uzoq yillar mobaynida tabobatda ham qo'llanilib kelinadigan mevalardan biridir. Anor foydaliligi tan olingan bo'lib, unda organizmning yaxshi faoliyat ko'rsatishi uchun barcha kerakli vitaminlar mavjud. Agar siz go'sht mahsulotli taomlarni iste'mol qilmasangiz va vegetarian bo'lsangiz, albatta shu meva sizning dasturxoningiz ustida doimiy ravishda bo'lishi kerak.

Chunki unda go'sht mahsulotida mavjud 15 aminokislotalar bor. Unda yana asosiy bo'lgan S, R, B6 va V12 to'rt vitaminlari mavjud. Anor yana yod, kaliy, kalsiy, temir va kremniy kabi minerallarga boy.

Anor ustki qismidan qurigan, ichi esa yaxshi pishgan va suvli bo'lishi kerak. Chunki siz anorni po'sti silliqroq vaqtida uzib olgan bo'lsangiz u taqdirda anor hali yaxshi yetilib

pishmagan bo'ladi. Shuning uchun anorni po'sti quriganroq bo'lishi kerak. Anorning po'sti bizga uning pishgan yoki pishmaganligi haqida bilish imkonini yaratadi.

Anor sharbati juda ham foydali bo'lib, uni qon kamlik kasalligida, aterosklerozda, bronxial astmada, anginada, diabet kasalliklarida iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Anorning po'sti, doni ham foydalidir. Ularning har biridan turli yo'nalishlarda foydalaniladi.

Anorning po'stini choyga qo'shib ichilsa, u uyqusizlik dardiga uchraganlarga va asab tizimi toliqqan va stress holatda yurgan insonlarga foydalidir. Yana tomog'ingiz og'rib qolsa, shifokor huzuriga yetib borguningizcha anor po'stini qaynatib uning suvida chaysangiz ancha yordam beradi. Chunki uning tarkibidagi organik kislotalar infeksiyani yo'q qilish imkoniga ega.

Anorni yana kosmetik vosita sifatida ham ayollarimiz o'z go'zalliklarini saqlash uchun qo'llashlari mumkin. Yuz teringiz yog'li va husnbuzarlar gohida sizni bezovta qiladimi? U taqdirda siz anor po'stini maydalab zaytun yog'ida salgina qovurib olib, uni muzlatgichda saqlang va haftada ikki marta dan ko'p bo'lmagan holda yuzingizga niqob qiling.

Shuni aytib o'tish joizki, anor ovqat ratsioniga kiritilgan bo'lsa va uni iste'mol qilib turilsa yurak xastalıkları yuzaga kelishini va ayollar ko'krak raki oldi olingan bo'lishi mumkin. Anor donalari esa yuqori bosimli kasallar uchun juda foydali, u bosimni sekin-asta tushishiga yordam beradi.

Shuni eslatib o'tishimiz kerakki, oshqozon yara kasalligi mavjud insonlarga anorni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Chunki u juda ham nordon va kislotalidir. Anor sharbatini o'zini ichish tishlarimiz emalini yemirilishiga olib kelishi mumkinligi sababli, unga ozgina qaynatilgan suv qo'shib ichish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ekspertlarning anor bozori tahlili natijalariga ko'ra, oxirgi o'n yillikda anor narxining o'rtacha yillik o'sishi 9%, sharbati esa 13% ni qayd etgan. Hatto ekzotik mahsulotlar ham narxning bunday barqaror o'sishini namoyish eta olmaydi. Bundan milliy ishlab chiqaruvchilar afsuski yetarlicha manfaat olmayaptilar. Bunday sharoitda iqtisodiyotning istiqbolli tarmog'ini modernizatsiyalashni ko'p kutish kerak bo'ladi.

Agar moliyaviy oqimlarni ishlab chiqaruvchilar foydasiga qayta yo'naltirish hamda ichki va tashqi bozorlarni mutanosiblashtirish va narxlarni yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi o'yin qoidalarini o'zgartirilmasa albatta. O'zbekistondan bu mahsulotni import qiluvchi dunyoning ko'p davlatlarining o'zida, ham salmoqli hajmlarda anor yetishtiriladi. Ammo bizdan farqli ravishda asosan ichki bozorda realizatsiya qilinadi.

Puldor va sog'ligi haqida yetarlicha qayg'uradigan xalqlar unchalik sifatli bo'lmasada, juda arzon o'zbek anorini ishtiyoq bilan sotib oladilar. Anor ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasining taqqoslama ma'lumotlariga ko'ra,

Yevropa va fors ko'rfazi mamlakatlarida yillik anor iste'moli bir kishiga o'rtacha 14,2-15,6 kg ni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 1,8-2,4 kg dan iborat. Ekspertlardan biri muammoning mohiyatini keltirgan – O'zbekistonda anor yetarli, ammo aholida uni sotib olishga moliyaviy resurslar kam.

Bu muhit ichki va tashqi bozorda narxlar tafovutini oshiradi hamda mamlakatimizdan yuqori daromadli mahsulotni har qanday yo'l bilan olib chiqishga intilishni kuchaytiradi. Jahon bozori kon'yunkturasi va qulay tabiiy-iqlim sharoitlari milliy anorchilikni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Ammo talab yuqori bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilishda O'zbekistonning o'zni barqaror emas. Bunda ishlab chiqarishdagi hamda talabchan iste'molchilarga sotishdan oldingi tayyorlash bosqichlaridagi nomutanosiblik xalaqit bermoqda.

Bularning barchasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan, milliy va xalqaro standartlardan, zamonaviy ishlab chiqarish usullaridan foydalanish va sotish amaliyotini o'z ichiga oladi. Anor uyushmasining tashkiliy ishlarida ancha siljishlar sezilmoqda. Anor ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi axborot tushuntirish ishlaridan tashqari o'z tarkibiga olimlar va amaliyotchilarni jalb etgan holda muayyan muammolar yechimiga sezilarli ta'sir etmoqda.

Anor uyushmasi tashkil etilgan muddatdan buyon bajarilgan tizimli ishlar to'laqonli natijalar ko'rsatdi. Anor ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasining sohani modernizatsiyalash, sanoat usulida yong'oqzorlar tashkil etish kabi ishlari meva bera boshladi. O'zbekiston hukumati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, uning eksport raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ulkan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda, chunki u iqtisodiyotning muhim tarmog'i hamda fermerlar va ko'plab qishloq, oilalari uchun muhim daromad manbai sifatida qabul qilinadi. Biroq, islohotlar salohiyatni oshirish bo'yicha muhim amallarni talab qiladi va qishloq xo'jaligi savdosining barqarorligini ta'minlash uchun zamonaviy qishloq xo'jaligi amaliyoti, oziq-ovqat xavfsizligi, o'simliklarni himoya qilish, shuningdek, xalqaro sifat standartlari kabi masalalar bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Jahon, tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli mahsulotni faqat sanoat usulida yetishtirilgan tanlangan navlar ko'chatlaridan olish mumkin. Hududdagi anorchilik tarmog'i ko'plab yangi va quritilgan bog'dorchilik mahsulotlari bilan bir qatorda eksportga yo'naltirilgan bo'lib, shuning uchun ham qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega. Biroq, potensialni ro'yobga chiqarish bir nechta asosiy komponentlarni ko'rib chiqish kerak, ulardan biri huquqiy va me'yoriy baza bo'lsa, ikkinchisi bozorlar va xaridorlar tahlilidir. Bunda yig'ilgan hosilni yaxshi jihozlangan korxonalarda saralash, quritish va zamonaviy

shaklda qadoqlash kerak.

Ammo O'zbekistonda iqtisodiyotning bu sohasi yetarlicha rivojlanmagan. Anor ishlab chiqarish bilan asosan uy xo'jaliklari shaxsiy tomorqalarida shug'ullanadi, turli tahlillarga ko'ra bu yalpi hosilning 80-85% dan ko'proq qismini tashkil etmoqda. anorni qayta ishlash va tayyorlash bilan shug'ullanuvchi yirik korxonalarni esa barmoq bilan sanash mumkin xolos. Bu esa anorning katta qismini ishlab chiqarish, tayyorlash va eksport qilish qora bozorga to'g'ri kelishini bildiradi. Anor yetishtirish tog'li hududlarda mahalliy aholining turmush farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va shuning uchun uni rivojlantirishga sarmoya kiritish juda muhimdir. Qishloq xo'jaligi sektori bir nechta sanoat tarmoqlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan qoldiqlar va chiqindilarga juda boy hisoblanadi. Demak, chiqindilarni foydali qo'shimcha mahsulotga aylantirishni "haqiqiy xazina" deb hisoblash mumkin.

Anor mevasining taxminan 40-60 foiz qismi anor ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan qo'shimcha chiqindi qo'shimcha mahsulotlarga aylanadi. Bu qism qulayligi, yuqori qattiqligi va mustahkamligi, arzonligi, namlikning kamligi va biologik parchalanishi tufayli katta miqdordagi foydali chiqindilar hisoblanadi. Anor hosilidan qoldiqlar va ularning valorizatsiyasi – bu anor mahsulotiga qiymat qo'shish va uni ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni qo'shimcha mahsulotlarga aylantirish nazarda tutiladi.

Anor qadim zamonlardan buyon O'zbekistonda yuqori baholangan mahsulotlardan biri hisoblanadi. Uning o'ziga xos Burma naqshlari, mustahkamligi va uzoq muddatga chidamliligi uni va boshqa hunarmandchilik sohaslarida keng qo'llashga olib kelgan. Anor o'zining mustahkamligi tufayli qadimgi hunarmandchilikda keng qo'llanilgan.

Anor o'zining yuqori ozuqaviy qiymati va noyob ta'mi tufayli dunyo oshxonalarida keng qo'llaniladi. Har bir mamlakat anorni o'z milliy an'analari va taomlariga moslashtirgan holda foydalanadi. O'rmon mevalari yilning muayyan davrlarida oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo'shishi, ozuqa xilma-xilligini oshirishi va qishloq va shahar aholisining sifatli ratsionga ega ovqatlanishi uchun muhim sanaladi[12].

Anor mevalilar orasida inson ovqatlanishida uchun eng muhim va keng tarqalgan mahsulotlardan biri bo'lib kelgan va hozirda ham, ko'plab mamlakatlarining ichki va eksport bozorlarida yaxshi tijoratlashtiriladi. AQSh va Yevropada anor sog'lom oziq-ovqat manbai sifatida qadrlanadi. U asosan shirinliklar, non mahsulotlari va desertlarda ishlatiladi.

Anor o'simligining hamma qismi dorivordir, guli va mevasini xomi va sharbati xalq tabobatida ko'p kasalliklarni davolashda va oldini olishda ishlatiladi. Punikaterapiya – latinka – punica granatum anor mevasi va terapiya – davolash, ya'ni anor mevasi va anor butasi mahsulotlari bilan davolashni

bildiradi. Bu atama oldin meditsinada mavjud emas edi, yangi kiritildi. Asosan qonni tozalaydigan va ko'paytiradigan ne'mat bo'lib hisoblanadi, me'da – ichaklarning yaxshilash uchun, shuningdek gepatit, xoletsistit, kamqonlik kasalliklarida, gipertoniya, sil, yurak, jigar, buyrak, o'pka, podagra, ikkilamchi anemiya va boshqa 60 dan oshiq kasalliklarini davolashda anordan foydalaniladi. Davo uchun anorning yetarlicha pishgan mevasi tanlanadi va bemorga bir sutka davomida 400 grammgacha va tayyorlangan sharbatidan esa 1 – 2 litrgacha beriladi. Barg va gulidan tayyorlangan xushbo'y kampo'ti bemorlarni davolashda yuqori samara beradi. Anor bilan davolashda organizmda moddalar almashinuvi jarayoni tezlashadi, siydik ko'p ajraladi, meda sekretsiyasi normallasadi, ichak funksiyalari yaxshilanadi va ishtaxa ochiladi.

Amirdavlat anor xosiyatlarini shunday tariflaydi: anor quloq yaralarini tezroq tuzalishiga yordam beradi, sariq kasalliklarni davolashda, ko'z va qavochlarni yalig'lanishida, soch to'kimasligini oldini olishda, urug'laridan tayyorlangan malxami qizamiq toshmalarini qaytarishga, barglarning qaynatmasi sochlarni kuchli qilishga, yurakni kuchli qiladi, ildizini po'stlog'i gijjalarni tushirishda keng foydalaniladi deb tariflagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir xonadonda ushbu o'simlikni tuvalarda, maxsus yashiklarda o'stirsa xonaga pashsha va chivinlar kirmaydi, chumoli, qumusqa, suvaraklar va hatto sichqon va kalamushlar oralamaydi. Muattar hushbo'y xidlarda dam olishni gashti boshqacha bo'ladi. Ushbu mo'jizakor o'simlikni, na faqat ochiq maydonlarda, balki O'zbekistondagi barcha uy xonadonlarida, ko'pqavatli uylardagi balkonlarda va issiqxonalarda situris mevalar kabi, yani, limon, apelsin va mandarin singari tuvak va yashiklarda yetishtirish vaqti kelganligini aloxida takidlamochimiz. Anor o'simligidan foydalanish darajasi xozir 8 – 10 foiz, kelgusida ko'proq foydalanish uchun, uni ustida ko'proq tajribalar o'tkazib, ochilmagan qirralarini ochish, kelajak avlodning vazifasi ekanligini, ularga, yani yoshlarga eslatib qo'yish xar bir tabibning vazifasidir.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Irgashev Abbas Jumanazarovich-Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti / Иргашев Аббос Джуманазарович - аспирант Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий / Irgashev Abbas Djumanazarovich - postgraduate student of Termez State University of Engineering and Agricultural Technology

► irgashevabbos1994@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0000-2147-0480>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. FAO qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekinlari statistikasi. <https://www.fao.org/faostat/ru/#data/QCL/visualize>
- [2]. <https://www.nationmaster.com/nmx/ranking/walnuts-production>
- [3]. Данков В. Субтропические культуры. Санкт-Петербург:2000. – с. 40-45.
- [4]. Рибакон А. А., Остроухова С. А. Ўзбекистон мевачилиги.Т.: Ўқитувчи, 1981. – б. 4-100.
- [5]. Самедов А. Вредители субтропических культур Азербайджана/Рекомендация. – Баку: 1993. – 11 с.
- [6]. Байметов К. И., Шредер Е. А., Ахмедов Ш. М., Қайимов А. Қ.Анорни фермер хўжаликларида кўпайтириш технологияси.– Тошкент. 2015.
- [7]. Мирзаев М.М., Собиров М.Қ. Боғдорчилик. – Ўзбекистонда боғдорчилик. – Т.: 1980. – б. 6-30.
- [8]. Останақулов Т. Э., Исламов С. Я, Хонқулов Х.Х., Санаев С.Т.,Холмирзаев Д.К. Мевачилик ва сабзавотчилик. С.: 2011. –б. 232-250.
- [9]. Ражаметов Ш., Нормуратов И., Адилон Х., Намозов И.Мева, резавор мева ва ток кўчатзорларини ташкил этиш.Тошкент. "Baktria press", 2018. – б. 11-80.
- [10]. Хасанов Б.А., Очилов Р.О., Холмуродов Э.А., Гулмуродов Р.А. Мевали ва ёнғоқ мевали дарахтлар, цитрус,резавор мевали буталар ҳамда ток касалликлари ва уларга қарши кураш. – Тошкент. 2010. – б. 182-205.
- [11]. Неъматов И. Анор етиштириш сирлари. – Тошкент.2011. б. 3-15.
- [12]. Samant, S.S., Dhar, U., 1997. Diversity, endemism and economic potential of wild edible plants of Indian Himalaya. Int J Sust Dev World 4, 179-191. <https://doi.org/10.1080/13504509709469953>.
- [13]. Mirziyoyev SH. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljal-lagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4575-son Qarori. – Toshkent. 2020 yil 28 yanvar.